

**KICHIK BIZNISNI RIVOJLANTIRISHLARISHNING UMUMIY TENDENTSIYALARI  
VA MUOMMOLARI**

---

**Tursunov Faridun Mustafoyevich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Bank ishi” kafedrası assistenti

[tursunovfaridun4330@gmail.com](mailto:tursunovfaridun4330@gmail.com)

**Vafaeva Mehrona Iskanderovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis institut talabasi

**Amonova Nilufar Akmalovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis institut talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanish tendentsiyalari va yuzaga kelayotgan muommolar tahlil qilingan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijasida ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan holda muallif bu borada o‘z fikrlarini bayon qilib jarayonga o‘z fikrlarini bildirib borgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, imtiyoz, infratuzilma, bank, davlat bojlari, YaIM, Covid 19, eksport, import, soliqlar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan barcha davlatlar iqtisodiyotida beznis va uning rivojlanishidagi umumiy tendentsiyalar va muommolar talaygina. Yer yuzidagi barcha rivojlangan davlatlar o‘z iqtisodiyotini yuksaltirishda turli xil chora tadbirlar amalga oshirib kelishmoqda. XXI asrga kelib bugungi kun insoniyati o‘z taraqqiyotining eng yuqori bosqichiga chiqdi. Buning natijasida rivojlangan davlatlar orasidagi raqobat yanada kuchaydi. Jahon bozorida va davlatlar orasida savdo iqtisodiy munosabatlarda manfaatlar to‘qnashuvi har qachongidan ham shiddatli tus oldi. Chunki, dunyodagi istalgan qudratli davlat ham o‘zining tashqi iqtisodiy aloqalarini samarali yo‘lga qo‘ymasdan turib raqobatga bardosh bera olmasligi tobora oydinlashib bormoqda. Shu nuqtainazardan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi uchun ham eksportbop tovarlarni ishlab chiqarish, jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish juda katta ahamiyatga ega. Chunki, bu bir tomondan, mamlakatning valyuta zaxirasi salmog‘ini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, hukumatning o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlariga erishishi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabr PQ306son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llabquvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra, kichik biznesni qo‘llabquvvatlash bo‘yicha “uzluksiz xizmatlar zanjiri” dasturini yaratish, beznisni rivojlantirish banki, uch oy muddatda xalqaro moliya institutlarining texnik ko‘magi va boshqa manbalar hisobidan biznes jarayonlarini avtomatlashtirgan holda tashkil etish va muvofiqlashtirib borish uchun Biznes portalni ishga tushirish, 2024yil 1yanvardan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yilgacha muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik Markaziy

bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratilish vazifalari belgilab berildi. Biznesni rivojlantirish banki aynan shu Dasturni samarali amalga oshirish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish bo'yicha asosiy tayanch bank etib belgilandi. Dasturni 2023-2026yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirishi belgilandi<sup>1</sup>. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biridir. 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023yil 14sentabr PQ306son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llabquvvatlash choratadbirlari to'g'risida»gi qarori Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishining ilmiynazariy va amaliy asoslari xorij olimlari S.Cao, D.Leung, R.B.Sappey, R.Anderson, R.G.Kuper, S.Xarvi tomonidan o'rganilgan va tadqiq qilingan<sup>2</sup>. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari V.V.Volgin, V.N.Tishkov, S.D.Polzikov, V.V.Visokov, Y.A.Mazilov ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ular tadqiqot ishlarida sohaning rivojlanish evolyutsiyasi, davlat tomonidan tartibga solinishi hamda turli xildagi imtiyozlar orqali qo'llab quvvatlash masalalari yoritib berilgan<sup>3</sup>. Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi yuzasidan o'zbek olimlari ham ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va hozirgi kunda izlanishlar davom etmoqda. Jumladan, X.T.Qodirov, M.S.Qosimova, R.A.Sodiqova, Sh.Yuldashev, S.Gulomov, N.Q.Muradova va boshqalar Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar o'tkazishgan<sup>4</sup>. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlan shiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hamda hududlarda kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolari yetarlicha darajada o'rganilmagan. Aynan mana shu holat tanlangan muammo dolzarbligini belgilaydi va ushbu muammoni hal qilish Yangi O'zbekiston 2030 yilga qadar rivojlantirish Srategiyasini amalga oshirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasida ko'plab choratadbirlar amalga oshirildi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga e'tibor kuchaydi va ko'plab istiqbolli loyihalar va choratadbirlar tizimi ishlab chiqildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" vazifasi qo'yilgan<sup>2</sup>. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, YaIM davlatning haqiqiy qudratini ko'rsatadigan makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi muntazam oshish tendensiyasiga ega bo'ldi va oxirgi 5 yilda past darajada tushmoqda (1rasm). 2000yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining YaIM dagi ulushi 31.0% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2005yilga kelib bu ko'rsatkich 38.2% ga, 2010yilda 60.8%ga, 2015yilda 64.6% ga, 2020 yilda 54.8% ga va 2023yilda esa 51.2% ga yetgan. Yillar davomida olib qaraydigan bo'lsak oshish tendensiyasi kuzatilyapti, ammo 2016yildan keyin past darajada bo'lsa ham pasayish tendensiyasi kuzatildi. So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushini kamayishining asosiy sababi YaIM hajmining oshishligi bilan bog'liq. Masalan, 2019yilda YaIM hajmi 532 712,5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2023yilda 1 066 569,0 mlrd so'mga yetdi, bu o'z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini pasayishiga to'g'ri keladi. Bundan shuni aniqlasak bo'ladiki, 2019 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati 298 319 mlrd. so'm (56%), 2023yilda esa 555 682.4 mlrd. so'mni (51.2%) tashkil qilgan<sup>3</sup>. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'sish sur'atlariga bozor

iqtisodiyotiga bosqichmabosqich o'tish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, investitsiyalarning kirib kelishi, tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar, oilaviy tadbirkorlikka e'tiborning kuchayishi va boshqa ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi qator ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ular dinamikasi sohadagi o'zgarishlarni ifodalaydi. "Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llabquvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish"<sup>2</sup> ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilandi. Har qanday mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodidagi o'rni va roli ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bevosita ta'sir qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'rni sezilarli darajada. Buni sanoat, qishloq xo'jaligi, bandlar soni va aholi daromadlarida kuzatish mumkin (1jadval). Hozirgi davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatlarining rivojlanish natijasida ularning iqtisodiy sohalaridagi ko'rsatkichlari ham bir necha barobar oshmoqda. Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni dehqon va fermer xo'jaliklarisiz 2019yilga nisbatan 2023yilda 1.7 marta, ro'yxatdan o'tgan, kichik tadbirkorlik subyektlari soni, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz 1.8 marta, iqtisodiyotda jami bandlar soni (ming kishi hisobida) 1.1 marta oshganini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznesda bandlar soni 2019yilda 10318.9 ming kishini tashkil qilgan, ammo Covid19 sababli bu ko'rsatkich tushgan va 2020yilda 9865.7 ming kishiga yetgan. So'nggi yillarda bandlar soni yana o'sish sur'atlarini ko'rsatdi va 2023yilda 10278.9 ming kishiga yetdi. Xulosa va takliflar. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar va tadqiqotlar natijasida, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi bo'yicha quyidagilar taklif etiladi: – tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari uchun tovarlarini eksportga rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish, bunda raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish; – eksportbop tovarlar ishlab chiqaruvchilarni qo'llabquvvatlash maqsadida, kichik biznes korxonalarida ishlatiladigan chetdan import qilinayotgan xomashyo tovarlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish (QQS stavkasini tovar qayta ishlanganlik darajasiga qarab tabaqalashtirish); – kichik biznes faoliyatini belgilaydigan ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning aniq tizimini ishlab chiqish, kichik biznesda ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy qilish, kichik va katta biznes o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish; – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llabquvvatlash maqsadida, ulardan turli xil soliqlar va undiriladigan pul miqdorlarini kamaytirish hamda kichik biznesni boshlamoqchi bo'lgan aholiga subsidiyalar ajratish; – hozirgi davr talabidan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun qulay muhitni shakllantirish va paydo bo'ladigan xatarlardan holi etish uchun kichik biznes metodologiyasini o'rganish. – yangi texnikalar ishlab chiqarishga va ilmiy tadqiqotlardan asosiy daromad oluvchi, ilmiy tadqiqotlar yutuqlarini ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etadigan kichik biznes korxonalariga soliq, arzon kreditlar ajratish va boshqa masalalarda imtiyozlar tizimini ishlab chiqish; – Yangi O'zbekiston 2030 yilga qadar rivojlantirish Strategiyasini amalga oshirishda qatnashayotgan va o'z hissasini qo'shayotgan kichik biznes korxonalariga soliq, arzon kreditlar ajratish va boshqa masalalarda imtiyozlar tizimini ishlab chiqish. Bugunga qadar kichik biznes subyektlarining yirik biznesga aylanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar tahlili ustida yurtimiz olimlari hamda tadqiqotchilari, shuningdek xorijiy tadqiqotchilar ham ko'plab tahlillarni amalga oshirishgan. Hususan, J.Donaboyev o'zining "O'zbekistonda biznes raqobat muhitini yaratish muammolari" nomli tadqiqotida biznes muhitini rivojlantirishdagi asosiy muammolar sifatida mavjud monopoliya ta'siri hamda hukumatning iqtisodiyotga aralashuv omillarini tahlil qilgan. Tadqiqotchi ushbu muammolarnin oldini olishda

hukumat kichik biznes subyektlarini monopoliyadan himoya qilish va davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirishga oid chora-tadbirlar qo'llashi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, iqtisodchi A.Y.Abdullayev "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy muammolari, qo'llab-quvvatlash usullari va yechimlari" (2023, Бюллетень науки и практики ) nomli tadqiqotida O'zbekistonda kichik biznesning kengayishi bank kreditlaridan foydalanishning cheklanganligini asosiy to'siqlardan biri sifatida ko'rsatadi. Tadqiqotchi hukumat iqtisodiy va tashkiliy yordam ko'rsatish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga ko'maklashishi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkinligini ta'kidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023yil 14sentabrdagi PQ306son «Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llabquvvatlash choratadbirlari to'g'risida»gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6609110>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023yil 11sentabrdagi PF158son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.<https://lex.uz/ru/docs/6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28yanvardagi PF60son "20222026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.<https://lex.uz/docs/5841063>.
4. Шарипова Нигина Джоракуловна, Джураев Искандар. (2024). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ. Эфиопский международный журнал многопрофильных исследований , 11 (04), 66–68.
5. Sharipova Nigina Jorakulovna. Maksudov Orif Shakirovich , (2023). THE IMPORTANCE OF MONETARY REFORMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(12), 880–883.
6. Шарипова Нигина Джуракуловна Самаркандский институт экономики и сервиса Ассистент. (2023). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. Zenodo.
7. Шарипова, Н.Д. Акобиров, А.П., и (2023). ДАЛЬНЕЙШЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. SCHOLAR , 1 (35), 66–73.